

## AHOLI O‘RTASIDA MOLIYAVIY SAVODXONLIKNI OSHIRISHNING AHAMIYATI

**Nazarova Ra’no Rustamovna**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,  
“Yashil” iqtisodiyot kafedrasini mudiri,  
Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

### **Annotatsiya**

Moliyaviy savodxonlik nafaqat iqtisodiy rivojlanishda, balki insonlarning shaxsiy rivojlanishida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shaxsiy rivojlanish bir tomondan ijtimoiy-madaniy bo‘lsa, ikkinchi tomondan jismoniy-psixologik rivojlanishni nazarda tutadi. Har qanday rivojlanishning negizida moliyaviy holat va moliyaviy savodxonlik yotadi. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi hududlarida istiqomat qilayotgan aholining moliyaviy savodxonlik darajasi tahlil qilingan hamda mavjud kamchiliklar yuzasidan amaliy taklif va tavsiyalar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** moliyaviy savodxonlik, aholining turmush darajasi, moliya, pul, moliyaviy erkinlik, moliyaviy qaramlik, byudjet.

### **Аннотация**

Финансовая грамотность играет важную роль не только в экономическом развитии, но и в личностном развитии человека. Личностное развитие, с одной стороны, охватывает социально-культурные аспекты, а с другой стороны, включает физическое и психологическое развитие. В основе любого развития лежит финансовое положение и уровень финансовой грамотности. В данной статье проводится анализ уровня финансовой грамотности населения, проживающего в регионах Республики Узбекистан, выявляются существующие недостатки и предлагаются практические рекомендации по их устранению.

**Ключевые слова:** финансовая грамотность, уровень жизни населения, финансы, деньги, финансовая свобода, финансовая зависимость, бюджет.

### **Abstract**

Financial literacy plays a crucial role not only in economic development but also in personal growth. Personal development encompasses both socio-cultural aspects on one hand and physical-psychological development on the other. At the core of any development lies financial status and financial literacy. This article analyzes the level of financial literacy among the population residing in different regions of the Republic of Uzbekistan, identifies existing shortcomings, and provides practical suggestions and recommendations for improvement.

**Keywords:** financial literacy, standard of living of the population, finance, money, financial freedom, financial dependence, budget.

### **KIRISH**

Jahon amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, ko‘p kishilar o‘z mablag‘laridan to‘g‘ri foydalana olish, o‘z xarajatlari va jamg‘armalarini rejalashtirish, investitsiya yo‘nalishlarini aniqlash, favqulodda vaziyatlar uchun mablag‘ jamg‘arish borasida yetarli darajada bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lmagani sababli samarasiz qarorlar qabul qiladi va o‘zlarining moddiy farovonligini oshirish salohiyatidan to‘liq foydalana

olmaydi. Kishilar qabul qilayotgan moliyaviy qarorlarning samaradorligini oshirish uchun aholi moliyaviy savodxonligi tizimini joriy etish zarur.

Aholining moliyaviy savodxonlik darajasini oshirishning dolzarbligi quyidagi sabablar bilan belgilanadi [1]:

1. Aholi daromad manbalari tarkibining o'zgarishi. Aholi daromadlari tarkibida kichik biznes, oilaviy va individual tadbirkorlikdan olinadigan daromadlar ulushining ortib borishi jamg'arma va investitsiyalarni samarali boshqarish hamda xarajatlarni to'g'ri rejalashtirishga bo'lgan ehtiyojning keskin ortishiga olib keladi.

2. Ko'p sonli xususiy tadbirkorlarning paydo bo'lishi. Bunday tadbirkorlar kundalik ish faoliyatida turli boshqaruv masalalarini yechadi: moliyaviy oqimlar va moddiy aktivlarni boshqarish, moliyaviy hisobga olish, daromad va xarajatlarni rejalashtirish, sug'urta fondlarini shakllantirish, moddiy resurslarni sotib olishni optimallashtirish, bank xizmatlaridan foydalanish, jamg'armalarni investitsiyalash, kredit olish va qarzni boshqarish kabilar shular jumlasidandir.

3. Aholining uzoq muddatli jamg'armalarga va kredit olishga bo'lgan ehtiyoji keskin ortishi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida aholi jamg'arishning quyidagi funksiyalarini mustaqil amalga oshirishi lozim: qo'shimcha pensiya jamg'armalarini shakllantirish, tibbiyot va ta'lim xizmatlariga to'lov uchun jamg'arish.

4. Shaxsiy jamg'armalarni investitsiyalash va moddiy aktivlarni boshqarish imkoniyatlarining kengayishi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida aholi jamg'armalari va investitsiyalarni amalga oshirishning turli muqobil usullari vujudga keladi.

5. Aholi mehnat migratsiyasi miqyosining kengayishi. Xorijda ishlovchi mehnat migrantlari ishdan bo'shatish, aldash, yomon ijtimoiy sharoitlar va yomon muomala kabi xatarlarning oldini olish uchun pul o'tkazmalari, xorij mamlakatlardagi bank xizmati va sug'urta tizimi to'g'risidagi bilimlarini oshirish lozim.

6. Aholining iste'mol madaniyatiga oid ayrim xususiyatlari. Ba'zi an'anaviy bayramlarga sarflanadigan katta xarajatlarni qisqartirish va inson kapitaliga yo'naltiriladigan investitsiyalarni oshirish zarurati moliyaviy savodxonlikni oshirishni taqozo etadi.

7. Qator moliyaviy xizmat turlarining nisbatan kam iste'mol qilinishi sababli ularning tarkibi cheklangan.

8. Moliyaviy xizmatlar sotib olinayotgan davrda sifati mustaqil tekshiruvdan o'tkazilmaganligi sababli sotuvchilar tomonidan sifatsiz mahsulotlarni sotish imkoniyatlarining yuzaga kelishi.

9. Tomonlarning o'z zimmasiga olgan yuqori majburiyatlarini tekshirish xarajatlarining ko'pligi.

Moliyaviy savodxonlik tizimini joriy etish, ayniqsa, aholining ijtimoiy jihatdan nochor qatlamlari uchun juda muhim hisoblanadi va aholining farovonligini oshirishda katta ahamiyat kasb etadi. Aholining moliyaviy savodxonligi kishilarga o'z daromadlari va jamg'armalarini samarali boshqarishda muhim dastak rolini bajarishi mumkin.

Moliyaviy savodxonlik oilalarga uzoq muddatga mo'ljallangan istiqbolda o'z xarajatlarini hisob-kitoblarga asoslangan holda rejalashtirish, mablag'larni to'g'ri tejash, qarz va kreditlar olish bo'yicha oqilona qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, moliyaviy jihatdan savodli kishi quyidagi afzalliklarga ega bo'ladi [2]:

- pul va narxlar borasida to'g'ri qaror qabul qila olish;
- o'zining oilaviy byudjetini oqilona boshqarish qobiliyatiga ega bo'lish;
- moliyaviy aktivlar va xarajatlarini samarali boshqarish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- o'z moliyaviy majburiyatlarini belgilangan muddatda bajarish;
- moliyaviy xizmatlardan keng foydalanish asosida shaxsiy jamg'arma va investitsiyalarni amalga oshirish uchun qo'llaniladigan dastaklar sonining ortishi;
- turmush darajasidagi o'zgarishlarga moslasha olish.

Moliyaviy savodxonlik standartlari ushbu fanni o'qitish jarayoni mazmuni va natijalarini quyidagi to'rt yo'nalish bo'yicha belgilaydi: pul, xonadon xo'jaligi iqtisodiyoti, moliyaviy mahsulotlar va iste'molchilarning huquqlari.

### **ADABIYOTLAR SHARHI**

Moliyaviy savodxonlik shaxsiy moliyani boshqarish, investitsiya qilish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Quyida mavzuga oid mahalliy va xorijiy tadqiqotlarning asosiy xulosalari keltiriladi.

X. I. Boyev (2020) moliyaviy savodxonlik tashabbuslarini rivojlantirish va oshirish konsepsiyasini xalqaro amaliyot asosida o'rganib, moliyaviy bilimlarning shaxsiy moliyani boshqarish va investitsiya qarorlaridagi rolini ta'kidlaydi. Tadqiqotda globallashuv sharoitida moliyaviy savodxonlikning jamiyat iqtisodiy barqarorligiga ijobiy ta'siri ko'rsatib o'tilgan [3].

B. E. To'rayev, S. F. Eshbayeva (2021) moliyaviy xizmatlarning kengayishi aholining moliyaviy savodxonligini oshirishni taqozo etishini ta'kidlaydi [4].

X. Xudayarova (2022) moliyaviy savodxonlikka ta'sir etuvchi omillar va xalqaro tajribalarni tahlil qilib, O'zbekiston sharoitida moliyaviy savodxonlikni oshirish bo'yicha samarali yo'llarni tavsiya qiladi. U moliyaviy ta'lim dasturlarini kengaytirishning zarurligini ta'kidlaydi [5].

### **METODOLOGIYA**

Mazkur ilmiy tadqiqot doirasida statistik ma'lumotlar ilmiy-metodologik nuqtai nazardan tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida iqtisodiy jarayonlarni chuqur o'rganish va ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish maqsadida ekonometrik modellar qo'llanildi. Shuningdek, olingan natijalar asosida keyingi yillarga mo'ljallangan prognozlar ishlab chiqilib, ilmiy asoslangan xulosa va amaliy tavsiyalar shakllantirildi. Shuningdek, rivojlangan mamlakatlarning moliyaviy savodxonlikni oshirish bo'yicha tajribalari o'rganilib, ularning muvaffaqiyatli strategiyalaridan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilindi. Xalqaro amaliyotlar bilan solishtirish orqali mahalliy sharoitga mos innovatsion yondashuvlar ishlab chiqildi va ularning iqtisodiy samaradorligi baholandi.

Aholining moliyaviy savodxonligini oshirish AQSH, Buyuk Britaniya va Avstraliya davlatlarining iqtisodiy siyosatidagi ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda aholining moliyaviy savodxonligini oshirish dasturlari AQSH, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, Avstraliya, Hindiston, Indoneziya, Malayziya, Rossiya, Chexiya va boshqa mamlakatlarda amalga oshirilmoqda. Ushbu mamlakatlarda aholining moliyaviy savodxonligi talab va taklif bilan bog'liq holda alohida ahamiyat kasb etmoqda.

AQSHda moliyaviy savodxonlikni oshirish dasturlari muvaffaqiyatli amalga oshirilgan. Bu dasturlar fuqarolar uchun moliyaviy bilimlarini oshirish va to'g'ri boshqarish ko'nikmalarini shakllantirishga asoslangan.

AQSHda moliyaviy savodxonlikni oshirishning muhim yo'llari [6]: Ta'lim va axloqiy o'qituv: O'rta maktablar va kollejlarda moliyaviy savodxonlik darslari o'tkaziladi.

Davlat dasturlari: Markaziy bank va boshqa davlat tashkilotlari moliyaviy savodxonlikni targ'ib qilish uchun dasturlarni amalga oshiradi.

Ommaviy axloqiy kampaniyalar: Moliyaviy savodxonlikni targ'ib qilish uchun telekanallar, jurnallar va internet orqali kampaniyalar o'tkaziladi. Moliyaviy savodxonlik markazi:

Fuqarolar uchun moliyaviy savodxonlik darslari va seminarlari tashkil qilinadigan markazlar. Bu dasturlar orqali AQSH fuqarolarining moliyaviy savodxonlik darajasini oshirishga harakat qilinmoqda, bu esa ularning moliyaviy hayotlari va umumiy iqtisodiy o'sishlari uchun muhim ahamiyatga ega.

Germaniya madaniyatida moliyaviy savodxonlik va to'g'ri boshqarish ko'nikmalari katta ahamiyatga ega.

Germaniyaning moliyaviy savodxonlik dasturlari: O'rta maktablar va kollejlarda o'qituv: Moliyaviy savodxonlik darslari o'rta maktablar va kollejlarda o'tkaziladi. Davlat dasturlari: Germaniya hukumati moliyaviy savodxonlikni targ'ib qilish uchun ko'plab dasturlarni amalga oshiradi.

Ommaviy axloqiy kampaniyalar: Moliyaviy savodxonlikni targ'ib qilish uchun telekanallar, jurnallar va internet orqali kampaniyalar o'tkaziladi.

Moliyaviy savodxonlik markazi: Fuqarolar uchun moliyaviy savodxonlik darslari va seminarlari tashkil qilinadigan markazlar. Bu dasturlar orqali Germaniya fuqarolarining moliyaviy savodxonlik darajasini oshirishga harakat qilinmoqda, bu esa ularning moliyaviy hayotlari va umumiy iqtisodiy o'sishlari uchun muhim ahamiyatga ega. Jahonda moliyaviy ta'limni rivojlantirish va aholi moliyaviy savodxonligini oshirish muammolarini tushunish, ularni hal etish hamda miqyosi bo'yicha mamlakatlarni quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin [7]:

1. Moliyaviy ta'lim va aholining moliyaviy savodxonligini oshirish muammolari uzoq muddatdan beri o'rganilib, yetarlicha muvaffaqiyatli hal etilayotgan mamlakatlar (AQSH, Kanada, Avstraliya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Singapur va Yangi Zelandiya);

2. Moliyaviy ta'lim va aholining savodxonlik darajasi muammolari kun tartibiga qo'yilgan va mazkur muammoni hal etish chora-tadbirlari amalga oshirilayotgan mamlakatlar (Italiya, Niderlandiya, Avstriya, Polsha, Chexiya, Hindiston, Rossiya);

3. Moliyaviy ta'lim va aholining moliyaviy savodxonligi darajasini oshirish muammosini o'rganish kun tartibiga qo'yilishi rejalashtirilayotgan va bu borada ayrim tadbirlar amalga oshirilayotgan mamlakatlar (boshqa mamlakatlar).

## TAHLIL VA NATIJALAR

Moliyaviy savodxonlik darajasini oshirish bo'yicha dasturlar qator rivojlangan mamlakatlarning davlat siyosatida ustuvor masala hisoblanadi, ayniqsa, G'arbda bu sohaga alohida e'tibor qaratiladi. Bunday chora-tadbirlar fuqarolarni o'z daromadlarini to'g'ri boshqarish, unumli sarmoyalar kiritish, jamg'arish va tejab sarflashga o'rgatish uchun mo'ljallangan.

Gap shundaki, o'z sarmoyasini to'g'ri boshqarish bo'yicha ko'nikmaga ega bo'lmaslik pala-partish sarf-xarajatlar, turli moliyaviy piramidalar hamda boshqa shubhali daromad manbalariga qiziqish natijasida mablag'dan ayrilish holatlariga olib keladi. Bu esa o'z navbatida odamlarni kambag'allikka yoki uning chegarasiga keltirib qo'yishi, ularni jamg'armasiz yoki ishsiz qoldirishi mumkin.

Kambag'allik nafaqat alohida shaxslar, balki davlat uchun ham xavfli, chunki u iqtisodiyotni rivojlantirishni to'sadi, jinoyatchilik darajasini oshiradi hamda kambag'allarni ijtimoiy nafaqalar bilan ta'minlashdek og'ir yukni davlat yelkasiga ortadi. Aynan shu sababli keyingi yillarda moliyani to'g'ri boshqarish mavzusi tez-tez muhokama qilinmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbuslari doirasida aholining moliyaviy savodxonlikka bo'lgan qiziqishini oshirish hamda aholi o'rtasida moliyaviy ochiqlik prinsiplarini targ'ib etuvchi "Open Budget" portali ishga tushirilishi mamlakatimiz aholisi orasida moliyaviy savodxonlikning ahamiyatini yanada chuqurroq tushunib yetishga turtki bo'ldi.

Moliyaviy savodxonlikni keng ommaga yanada yaxshiroq tushuntirishning asosi umumta'lim maktablaridan boshlanishi lozim. Sababi, maktab ta'limidan boshlab moliyaviy savodxonlikka urg'u beruvchi o'quv jarayonlarini tashkil etish qisqa muddatli emas, balki uzoq muddatli barqaror natijalarga erishishga xizmat qiladi.

Aholining moliyaviy savodxonlik darajasini aniqlovchi omillar hududlar kesimida tahlil qilinishi muhim. Jumladan: Hududlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari soni, Hududlar kesimida aholining o'rtacha moliyaviy holati, Hududlar kesimida oliy ta'lim bitiruvchilari soni, Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi.

Bu omillar aholining moliyaviy savodxonlik darajasiga ta'sir qiluvchi asosiy ko'rsatkichlar sifatida tahlil qilinishi lozim.

Quyidagi jadvalda **2019–2023**-yillar kesimida shartli ravishda aholining moliyaviy savodxonlik darajasini belgilovchi omil sifatida oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari soni va unga ta'sir etuvchi omillar aks ettirilgan.

**1-jadval.**
**Shartli ravishda aholi savodxonlik darajasini belgilovchi mezonlar (2019-2023-yillar)[8]**

Yillar	Umumiy maktablar soni	Aholi soni	Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi	Oliy ta'lim bitiruvchilar soni
2019	10090	33255,5	195927,3	70793
2020	10181	33905,2	210195,1	83905
2021	10289	34558,9	239552,6	103898
2022	10522	35271,3	266240	102381
2023	10750	36024,9	356071,4	184133

*Manba: stat.uz portal ma'lumotlariga asoslangan holda muallif tomonidan tuzilgan*

Umumiy maktablar soni: 2019-yildan 2023-yilgacha umumiy maktablar soni muntazam ravishda oshgan. 2019-yilda 10,090 ta maktab bo'lgan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich 10,750 taga yetgan.

Bu ta'lim infratuzilmasining kengaytirayotganligini ko'rsatadi.

Aholi soni: aholi soni ham doimiy ravishda o'sgan. 2019-yilda aholi soni 33,255,5 ming kishini tashkil qilgan bo'lsa, 2023-yilda bu raqam 36,024,9 ming kishiga yetgan. Bu ta'lim xizmatlari va infratuzilmasiga bo'lgan talabning oshganligini anglatadi.

Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi: Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi sezilarli darajada oshgan. 2019-yilda 195,927.3 millionni tashkil qilgan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich 356,071.4 millionga yetgan. Bu iqtisodiy rivojlanishga va infratuzilmani yaxshilashga katta e'tibor qaratilganligini ko'rsatadi.


Oliy ta'lim bitiruvchilar soni: Oliy ta'lim bitiruvchilar soni ham sezilarli darajada oshgan. 2019-yilda 70,793 bo'lgan bitiruvchilar soni, 2023-yilda 184,133 taga yetgan. Bu oliy ta'limga bo'lgan e'tibor ortganligini va unga kirish imkoniyati yaxshilanganligini ko'rsatadi. Ushbu tahlil keyingi besh yil davomida ta'lim sektori, aholi o'sishi, iqtisodiy investitsiyalar va oliy ta'lim natijalari bo'yicha ijobiy o'zgarishlarni ko'rsatadi. Berilgan omillar ichidan shartli ravishda bugungi kunda aholining moliyaviy savodxonligini oshishiga asosiy omil sifatida oliy ta'lim bitiruvchilari soni tanlab olingan, unga ta'sir etuvchi omillarning regression hamda korrelyatsion tahlillari amalga oshirilgan.

**2- jadval**
**Kolleksion tahlil natijalari**

O'zgaruvchilar	(1)	(2)	(3)	(4)
(1) OTBS	1.000			
(2) AKI	0.981	1.000		
(3) AS	0.889	0.949	1.000	
(4) MS	0.915	0.975	0.985	1.000

*Manba: muallif tomonidan tuzilgan*

Yuqorida korrelyatsiya koeffitsiyentlari barcha o'zgaruvchilar orasida kuchli bog'liqlikni ko'rsatadi. Masalan, OTBS va AKI, AS va MS orasida ijobiy bog'liqlik yuqori. Bu shuni anglatadiki, bitta o'zgaruvchining qiymati oshganida, boshqa o'zgaruvchining qiymati ham oshishi mumkin.



**1-rasm. Tanlab olingan omillar o‘rtasidagi bog‘liqlikning grafik ko‘rinishi.<sup>1</sup>**

Yuqoridagi regressiya matritsasidan ham ko‘rinib turibdiki omillar o‘rtasida ijobiy va kuchli bog‘lanish mavjud. Bu esa biz tanlab olgan omillarni regressiya tenglamasida ishonchlilik darajasi yuqori ekanligini ko‘rsatib beradi.

3-jadvalda berilgan regressiya tenglamasida oliy ta‘lim bitiruvchilari sonining oshishi yoki kamayishiga asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi ta‘siri tahlil qilingan.

**3-jadval**

**Oliy ta‘lim bitiruvchilari sonining asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi ta‘sirini baholash natijalari**

OTBS	Coef.	St.Err.	t-value	p-value	[95% Conf	Interval]	Sig
AKI	0.683	0.079	8.64	0.003	0.432	0.935	***
Constant	-64272.651	20547.352	-3.13	0.052	-129663.5	1118.194	*
Mean dependent var	109022.000		SD dependent var	44171.090			
R-squared	0.961		Number of obs	5			
F-test	74.685		Prob > F	0.003			
Akaike crit. (AIC)	107.762		Bayesian crit. (BIC)	106.981			
*** $p < .01$ , ** $p < .05$ , * $p < .1$							

*Manba: muallif ishlanmasi*

3-jadvaldagi regressiya tenglamasidan ko‘rinib turibdiki oliy ta‘lim bitiruvchilari sonining oshishi yoki kamayishiga asosiy kapitalga investitsiyalarning ijobiy ta‘siri mavjud.  $P=0.003$  bu koeffitsiyentning statistik ahamiyatlilik darajasini bildiradi.  $p < 0.01$  bo‘lganligi sababli, bu koeffitsiyent statistik jihatdan juda ahamiyatli hisoblanadi. Biz yana bir jihatga e‘tibor qaratishimi lozim, bu R kvadrat hisoblanadi, uning qiymati 0,961 ga teng, bu shuni anglatadiki, ushbu tenglama natijasining amalga oshish darajasi 96% ga teng. Yuqoridagi regressiya tenglamasidan biz quyidagi chiziqli regressiya tenglamasini tuzishimiz mumkin:

$$OTBS = -64272.651 + 0,683 * AKI$$

Bu yerda:

<sup>1</sup> muallif ishlanmasi

OTBS=oliy ta'lim bitiruvchilari soni;

AKI=asosiy kapitalga investitsiya.

Yuqoridagi regressiya tenglamasidan shuni xulosa qilish mumkinki, agar asosiy kapitalga investitsiyalar hajmini biz 1 birlikka oshiradigan bo'lsak, oliy ta'lim bitiruvchilari soni 0,683 birlikka oshadi.

Xuddi yuqorida kabi oliy ta'lim bitiruvchilari sonining oshirishiga aholi sonining oshishi ta'sirini ham regressiya tenglamasi orqali tahlil qilishga harakat qildik hamda chiziqli regressiya tenglamasini tuzishga harakat qildik (4-jadval).

#### 4-jadval

##### Bitiruvchilari sonining oshirishiga aholi sonining oshishi ta'sirini baholash

OTBS	Coef.	St.Err.	t-value	p-value	[95% Conf	Interval]	Sig
AS	35.958	10.679	3.37	.044	1.973	69.943	**
Constant	-1135231.2	369673.75	-3.07	.055	-2311698	41235.696	*
Mean dependent var		109022.000		SD dependent var		44171.090	
R-squared		0.791		Number of obs		5	
F-test		11.338		Prob > F		0.044	
Akaike crit. (AIC)		116.211		Bayesian crit. (BIC)		115.429	
*** $p < .01$ , ** $p < .05$ , * $p < .1$							

*Manba: muallif ishlanmasi*

Yuqoridagi jadvaldan ko'rishimiz mumkinki model aholi sonini o'zishi bilan oliy ta'lim bitiruvchilari soni o'rtasidagi kuchli ijobiy bog'liqlikni ko'rsatadi va modelning statistik ahamiyati yuqori ekanligini bildiradi. Yuqoridagi regression jadvaldan biz quyidagi chiziqli regressiya tenglamasini tuzib olishimiz mumkin.

$$OTBS = -1135231.2 + 35,958 * AS$$

Shuningdek oliy ta'lim bitiruvchilarining oshishi yoki kamayishiga maktablarning oshishi yoki kamayishini ham ta'sir etuvchi omil sifatida oldik va quyidagi natijalarga erishdik (5- jadval).

#### 5-jadval

##### Oliy ta'lim bitiruvchilari va maktablar sonining o'zaro ta'sirini baholash

OTBS	Coef.	St.Err.	t-value	p-value	[95% Conf	Interval]	Sig
MS	150.628	38.29	3.93	.029	28.773	272.483	**
Constant	-1452444.7	397033.11	-3.66	.035	-2715981.2	-188908.14	**
Mean dependent var		109022.000		SD dependent var		44171.090	
R-squared		0.838		Number of obs		5	
F-test		15.476		Prob > F		0.029	
Akaike crit. (AIC)		114.943		Bayesian crit. (BIC)		114.162	
*** $p < .01$ , ** $p < .05$ , * $p < .1$							

*Manba: muallif ishlanmasi*

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rishimiz mumkinki model maktablarning osishi bilan oliy ta‘lim bitiruvchilari soni o‘rtasidagi kuchli ijobiy bog‘liqlikni ko‘rsatadi va modelning statistik ahamiyati yuqori ekanligini bildiradi.

$$OTBS = -1452444.7 + 150.628 * MS$$

Umuman olganda aholining moliyaviy savodxonligini oshishida oliy ta‘lim muassasalari bitiruvchilari sonini shartli ravishda asosiy omil sifatida tanlab oldik, bu shuni anglatadiki, aholi o‘rtasida qancha oliy ma‘lumotli kadrlar ko‘payadigan bo‘lsa, aholining moliyaviy savodxonlik darajasi ham munosib ravishda oshib boradi.

### **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Oliy ta‘lim muassasalari aholining moliyaviy savodxonligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Uning ahamiyati quyidagi sohalarda ham yaqqol namoyon bo‘ladi: Bilim va ko‘nikmalar berish

Oliy ta‘lim muassasalari moliyaviy savodxonlikka oid bilim va ko‘nikmalarni o‘rgatadi. Talabalar moliyaviy rejalashtirish, investitsiya, kredit, soliq va boshqa moliyaviy tushunchalarni o‘zlashtiradilar. Bu bilimlar ularga hayotiy qarorlarni to‘g‘ri qabul qilishda yordam beradi. Amaliy mashg‘ulotlar va tajriba Oliy ta‘lim muassasalari ko‘pincha amaliy mashg‘ulotlar va tajriba almashinuv dasturlarini taklif etadi. Bu orqali talabalar haqiqiy hayotdagi moliyaviy muammolarni yechishga tayyor bo‘lishadi. Tadqiqotlar va ularning natijalari Oliy ta‘lim muassasalarida olib boriladigan tadqiqotlar moliyaviy savodxonlikka oid muammolarni tahlil qilish va ularni yechish yo‘llarini taklif etishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari jamiyatda moliyaviy savodxonlikni oshirishga ko‘mak beradi. Ommaviy axborot vositalari orqali tarqatish

Oliy ta‘lim muassasalari ommaviy axborot vositalari orqali moliyaviy savodxonlikka oid ma‘lumotlarni keng ommaga yetkazadi. Bu ma‘lumotlar aholi tomonidan o‘zlashtirilib, amaliyotga tatbiq etiladi. Davlat va nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlik

Oliy ta‘lim muassasalari davlat va nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlikda moliyaviy savodxonlik dasturlarini amalga oshiradi. Bu dasturlar orqali aholining moliyaviy bilimlarini oshirishga ko‘mak beriladi.

Umuman olganda, oliy ta‘lim muassasalari aholining moliyaviy savodxonligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi va bu orqali jamiyatda moliyaviy barqarorlik va farovonlikka erishiladi.

Oliy ta‘lim bitiruvchilari sonini oshirish uchun quyidagi omillarga e‘tibor qaratish lozim: Aholi sonining o‘sishi, Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmining oshishi, Umumta‘lim maktablari sonining ortishi.

Bundan tashqari, oliy ta‘lim bitiruvchilari soniga ta‘sir etuvchi boshqa omillar ham mavjud, ammo ushbu maqolada yuqorida sanab o‘tilgan omillarning ta‘sirini tahlil qilishga harakat qilindi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. OECD – Moliyaviy savodxonlikning xalqaro amaliyoti va tajribalarini o'rganish uchun ko'plab resurslarni taklif etadi. Ularning veb-saytida o'z tadqiqotlari va nashrlari mavjud. *Financial Education | OECD*
2. Jahon Banki – *World Bank Financial Education*, <https://www.worldbank.org>
3. Boyev, X. I. – Moliyaviy savodxonlik tashabbuslarini rivojlantirish va oshirish konsepsiyasi. *Iqtisodiyot va moliya* jurnali.
4. To'rayev, B. E., & Eshbayeva, S. F. – Moliyaviy xizmatlarning kengayishi va moliyaviy savodxonlikning iqtisodiy rivojlanishdagi roli. *Milliy iqtisodiyot masalalari* jurnali.
5. Xudayarova, X. (2022). O'zbekistonda moliyaviy savodxonlikni oshirish yo'nalishlari. *Iqtisodiy tadqiqotlar va innovatsiyalar* jurnali.
6. Moliyaviy savodxonlik va moliyaviy bilimdonlik.
7. Finlit.uz – O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining moliyaviy savodxonlik bo'yicha axborot-ta'lim veb-sayti.
8. Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari. *Stat.uz*
9. Manba: muallif ishlanmasi.
10. Xidirov, N. G., & Olqarova, Z. N. – *Aholi moliyaviy savodxonligi darajasining ijtimoiy hayotga ta'siri*, "Science and Education" Scientific Journal.
11. Nazarova, S. – *Moliyaviy savodxonlik*, darslik, 2020.



# Marketing

*ilmiy, amaliy va ommabop jurnali*

**Muharrir:**

**Ingliz tili muharriri:**

**Rus tili muharriri:**

**Musahhah:**

**Sahifalovchi va dizaynerlar:**

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

## 2025-yil, fevral, 2-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

[info@marketingjournal.uz](mailto:info@marketingjournal.uz)

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**